

BUGUNGI KUNDA AXBOROT MADANIYATI

Kazakova Sitora Umirzak qizi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti 2-kurs.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18253219>

Annotatsiya. Bugungi kunda axborot dunyoda eng qimmatli resurslardan biriga aylangan.

Axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi har bir insondan axborot bilan ishlash qobiliyatini, uni to'g'ri baholash va tarqatish mas'uliyatini talab qiladi. Bu jarayon esa "axborot madaniyati" tushunchasini shakllantirdi. Axborot madaniyati – bu faqatgina texnologiyalarni o'zlashtirish emas, balki axborotdan axloqiy va samarali foydalanish ko'nikmasidir. U axborotni izlash, tahlil qilish, tanlash va unga nisbatan tanqidiy yondashuvni o'z ichiga oladi. Bugungi kunda axborot oqimlari shunchalik ko'payganki, ular orasida to'g'ri va yolg'on, foydali va zararli axborotni ajratib olishning o'zi katta mahoratni talab etadi. Shu boisdan axborot madaniyati faqat texnik bilimlar emas, balki axloqiy tamoyillarni ham qamrab oladi.

Kalit so'zlar: axborot, axborot madaniyati, media savodxonlik, yolg'on xabarlar.

Abstract. Today, information has become one of the most valuable resources in the world.

The rapid development of information technologies requires every person to have the ability to work with information, to take responsibility for its correct assessment and dissemination. This process has formed the concept of "information culture". Information culture is not just the mastery of technologies, but also the ability to use information ethically and effectively. It includes the search, analysis, selection and critical approach to information. Today, information flows have increased so much that distinguishing between true and false, useful and harmful information requires great skill. Therefore, information culture encompasses not only technical knowledge, but also ethical principles.

Keywords: information, information culture, media literacy, fake news.

Bugungi kunda ta'lim tizimida rivojlanishning asosiy tendensiyalari jumlasida axborotlashgan jamiyatga o'tish, barcha jabhalarda media vositalaridan foydalanishning axborot texnologiyalari amaliyotga tadbiq etilmoqda.

Bo'lajak pedagoglarda mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish, globallashtirish va axborot makonining ochiqqligini ta'minlash yangi bilimlar, qarashlar, faktlar, konsepsiyalarni yaratish, medialar orqali tarqalayotgan axborotlar hamda axborot muhitini axborot madaniyatini rivojlantirish asosida takomillashtirishga qaratilgan yirik loyihalarni tadbiq etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Axborot madaniyati, kino, teatr, san'atning turlari, madaniyat sarchashmalari, internet orqali uzatilayotgan har qanday ma'lumot inson ongiga o'zining ma'lum bir ta'sirini o'tkazib, uning dunyoqarashini o'zgartirishga sabab bo'lmoqda. Axborot tushunchasi ma'lumot tushunchasi bilan uzviy bog'langan, lekin har qanday ma'lumot axborot bo'lavermaydi.

Facebook, Instagram, TikTok kabi platformalar nafaqat muloqot vositasi, balki axborot tarqatishning asosiy manbalaridan biriga aylangan. Shu sababli, axborotni tanqidiy tahlil qilish va ishonchli manbalarni tanlash madaniyati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Texnologiyalarning rivojlanishi shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash masalasini o'rta qo'ydi. Shaxsiy axborotni himoya qilish ko'nikmasi axborot madaniyatining ajralmas qismidir.

"Fake news" deb ataluvchi yolg'on ma'lumotlarning tezkor tarqalishi global miqyosda ijtimoiy va siyosiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Axborot madaniyatiga ega bo'lgan insonlar bunday axborotni aniqlash va tarqatishdan saqlanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Hozirgi kunda barcha axborotlarni nisbiy holda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

texnik axborot;
agrobiologik axborot;
siyosiy axborot;
huquqiy axborot;
iqtisodiy axborot va boshqalar.
barcha axborotlar quyidagi xususiyatlarga ega:
uzluksiz hosil bo'lishi.
harf raqamlarda ifodalanishi.
diskret harakterdaligi.



Axborot madaniyatini shakllantirish avvalo ta'lim tizimidan boshlanadi. Zamonaviy maktablar va oliy ta'lim muassasalari axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga, axborotni axloqiy va mas'uliyatli ishlatishni ham o'rgatishi kerak.

Axborot bilan ishlashda aniqlik, axloqiylik va mas'uliyatni shakllantirish orqali jamiyatda barqarorlik va taraqqiyotga erishish mumkin. Har bir inson axborotni qabul qilish va tarqatishda o'z mas'uliyatini anglab, axborot madaniyatiga rioya qilishi zarur.

Axborot madaniyatini o'rganishning ushbu jarayoni media ta'lim deb ataladi. UNESCO tashkiloti tomonidan XXI asrda media ta'limni targ'ib qilish madaniy-ma'rifiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etildi hamda aynan shu yo'l bilan media savodxonlikni oshirish mumkinligi ta'kidlandi.

Ijtimoiy tarmoq	Foydalanuvchilar soni (milliardda)	Asosiy kontent turi
Facebook	3.07	Matn, rasm, guruhlar
YouTube	2.50	Uzun va qisqa videolar
WhatsApp	2.00	Shaxsiy xabarlar, kanallar
Instagram	2.00	Vizual (rasm va Reels)
TikTok	1.60	Qisqa kreativ videolar
Telegram	0.95	Yangiliklar, kanallar, fayllar

UNESCO odamlarning tanqidiy fikrlash va toʻgʻri qaror qabul qilish darajasini yaxshilash uchun ommaviy axborot vositalari va media savodxonlikni rivojlantirishni qoʻllab quvvatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.S.Abdullayeva, Y.Z. Roʻziyev, K.V. Ismoilova ‘MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI’ darslik Toshkent-2024.
2. Ziyonet.uz
3. A.Abdullayev, U.Qosimova, S.Toʻraqulov oʻquv qoʻllanma